



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 7-mart, № 47 (8942)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI YANGI TAYINLANGAN XORIJIY ELCHILARDAN ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILIB OLDI

6-mart kuni xorijiy davlatlarning mamlakatimizga yangi tayinlangan elchilari tomonidan ishonch yorliqlarini topshirishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Favqulodda va muxtor elchilar — Misr Arab Respublikasidan Tamer Fatxi, Italiya Respublikasidan Pergabriyel Papadia de Bottini, Qirg'iz Respublikasidan Duyshonqul Chotonov, Belarus Respublikasidan Aleksandr Ogorodnikov, Gruziyadan David Kotariya va Turkiya Respublikasidan Ufuk Ulutashning ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi.

Davlatimiz rahbari diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini yangi O'zbekistondagi sharaflari missiyasi boshlangani bilan samimiy tabrikladi.

Dunyoda ziddiyatlar keskinlashib, geosiyosiy raqobat kuchayib borayotgan hozirgi davrda do'st davlatlarning bir-birini qo'llab-quvvatlashi har qachongidan ham muhim ekanini ta'kidlandi.

Bunday sharoitda O'zbekiston o'zining ochiq va pragmatik tashqi siyosati bilan o'zaro hurmat va do'stlikni mustahkamlab, dunyoning barcha mintaqalaridagi davlatlar, xalqaro tashkilotlar va global moliyaviy institutlar bilan amaliy sheriklikni rivojlantirmoqda.

Prezidentimiz umumiy siyosiy iroda tufayli Markaziy Osiyo yaxshi qo'shnichilik, ishonch va integratsiya mintaqasiga aylanib borayotgan alohida ta'kidlandi.

Joriy yilda O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarida raislik qilmoqda va Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan tarixiy sammitga tayyorgarlik ko'rilmogda.

Bo'layotgan jadal o'zgarishlar tufayli mintaqamizga qiziqish tobora ortib, "Markaziy Osiyo plus" muloqot maydoni kengayib borayotganini ta'kidlandi.

Joriy yil aprel oyida mamlakatimizda

"Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti, may oyida esa "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab mamlakatlari" formatidagi ikkinchi uchrashuv bo'lib o'tadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida 11 ta rezolyutsiya qabul qilinishi alohida qayd etildi.

Joriy yilda mamlakatimizda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi va YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkazilishi, 2027-yilda O'zbekiston Qo'shilmasslik harakatiga raislik qilishi ham davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzi tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

O'tgan yili jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 35 milliard dollarni tashkil etib, eksport 27 milliard dollardan oshgan. Yangi innovatsion formatda o'tkaziladigan Toshkent investitsiya forumiga tayyorgarlik ko'rilmogda.

— Ishlohtarimizdan ko'zlangan asosiy maqsad — har bir inson manfaatlarini ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish, "kelajak iqtisodiyoti" va ilg'or infratuzilmani barpo etish, jozibador investitsiya va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashdan iborat. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida belgilab olgan ulkan maqsad va rejalarimizni amalga oshirish uchun bizda yetarli salohiyat va imkoniyatlar, eng muhimi, kuchli itilish va siyosiy iroda bor, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlagani uchun diplomatik missiyalar rahbarlari vakillik qilayotgan mamlakatlar hukumatlariga minnatdorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari Misr Arab Respublikasi elchisiga murojaat qilar

ekan, ushbu mamlakat O'zbekistonning Yaqin Sharqdagi ishonchli hamkori ekanini ta'kidlandi.

Siyosiy maslahatlashuvlar muntazam ravishda o'tkazilmogda. O'tgan yili Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, 3 ta yirik biznes forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ikki mamlakat yetakchi kompaniyalarining kooperatsiyasi kengaymogda.

Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisingin mamlakatimizga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda yangi davrni boshlashda muhim voqea bo'lishi ta'kidlandi.

Misrning yetakchi tashkilotlari va kompaniyalari ishtirokida energetika, kimyo, qishloq xo'jaligi, geologiya, turizm, to'qimachilik va boshqa tarmoqlarda qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish istiqbolari qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Arab davlatlari ligasining yaqinda o'tgan sammitida Misr Prezidenti tomonidan ilgari surilgan G'azoni tiklash rejasini qabul qilish tashabbusini yuqori baholadi.

O'zbekiston yetakchisi Italiya ulkan siyosiy va iqtisodiy salohiyatga ega muhim strategik sherik ekanini ta'kidlandi.

Bugungi kunda Italiya kompaniyalari bilan "yashil" energetika, kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, ta'lim va turizm sohalarida yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Tashqi ishlar vazirlarining "Italiya — Markaziy Osiyo" formatidagi muloqoti davom etmoqda. Turin politexnika va Piza universitetlarining Toshkent shahridagi filiallari samarali faoliyat

yuritmogda.

O'tgan yili birinchi marta yetakchi oliy ta'lim muassasalari forumi o'tkazildi. Yaqinda Rim va Viarejio shaharlarida O'zbekiston madaniyati kunlari bo'lib o'tdi.

Yaqin kunlarda Hukumatlararo ishchi guruh yig'ilishi va biznes forumi, Lombardiya gubernatorining O'zbekistonga tashrifi hamda Hududlar kengashi bo'lib o'tadi. Bundan tashqari, qo'shma investitsiya fondini tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Italiya Bosh vazirining mamlakatimizga javob tashrifini tashkil qilish asosiy vazifa etib belgilandi.

Qirg'iziston O'zbekistonning yaqin qo'shnisi va strategik sherigidir.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi 4 barobar ortdi, qo'shma korxonalar soni 300 taga yetdi. Hududlarda avtomobil zavodi, to'qimachilik fabrikalari, tibbiyot markazlari, agroklasteralar ishga tushdi.

O'tgan yil dekabr oyida Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li qurilishi boshlangani muhim tarixiy voqea bo'ldi.

Shu oyda Xo'jand shahrida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston yetakchilari ishtirokida uch tomonlama sammit bo'lib o'tadi.

Hukumatlararo va parlamentlararo komissiyalar, Hududlararo forum va Ishbilarmonlar kengashi faoliyati natijadorligini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Keyingi yillarda O'zbekiston — Belarus hamkorligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

O'tgan yil fevral oyida Belarus

Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning mamlakatimizga rasmiy tashrifi ko'p qirrali sheriklikni kengaytirishga qo'shimcha sur'at bag'ishladi.

Tovar ayirboshlash hajmi izchil ortib bormogda, qo'shma korxonalar soni 240 taga yetdi. Yaqin kunlarda siyosiy maslahatlashuvlar, Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va ishbilarmonlik tadbirlari bo'lib o'tadi.

Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, yengil sanoat, sog'liqni saqlash, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida kooperatsiyani kuchaytirish zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Hududlararo, tibbiyot va ta'lim forumlarini samarali o'tkazish muhimligi qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Gruziya Janubiy Kavkazdagi ishonchli hamkorimiz ekanini ta'kidlandi.

O'tgan yili tovar ayirboshlash 50 foizga oshdi. Yuk tashish hajmi ortmogda, bank sohasidagi hamkorlik mustahkamlanmogda.

Hukumatlar va parlamentlar darajasidagi aloqalar faollashdi, madaniy va turizm almashinuvlari kengaymogda.

Gruziya Bosh vaziri Irakli Kobaxidzening kuni kecha O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi yakunlari ikki tomonlama munosabatlar rivojida yangi bosqich bo'lishiga ishonch bildirildi.

Tovar ayirboshlashni yanada oshirish, logistika va tranzit, turizm, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik sohalarida kooperatsiyani kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yilda hududlar biznes forumi, milliy mahsulotlar yarmarkasi, madaniyat kunlarini o'tkazish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Turkiya elchisiga murojaat qilar ekan, faol siyosiy muloqot tufayli ikki tomonlama munosabatlar keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganini ta'kidlandi.

O'tgan yili tovar ayirboshlash 3 milliard dollarga, o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 milliard dollarga, qo'shma korxonalar soni 2 mingtaga yetdi. Turkiyaning yetakchi kompaniyalari bilan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yirik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmogda. Toshkentda Turkiya davlatlar xalqaro universiteti tashkil etilmogda.

Yangi istiqbolli yo'nalishlar va aniq loyihalarni ilgari surish maqsadida joriy yilda O'zbekistonda oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishini tashkil qilish muhimligi qayd etildi.

Marosim yakunida davlatimiz rahbari yangi tayinlangan elchilarga sharaflari va mas'uliyatli faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi, sheriklikni mustahkamlash uchun mavjud barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishga chaqirdi, hududlar va xususiy biznes vakillari bilan faol hamkorlik qilishni tavsiya qildi.

O'z navbatida, diplomatlar samimiy qabul va samarali faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarga minnatdorlik bildirib, O'zbekiston bilan ko'p qirrali hamkorlikni faol ilgari surish yo'lida o'zlarining butun professional tajribasi va bilimidan foydalanishga tayyor ekanini ta'kidladilar.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

Senat qo'mitasida

UCH OYLIK FAOLIYAT TAHLILI

O'tgan qisqa davrda Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan Kengashning 4 ta qarori, Senatning 2 ta qarori loyihasi tayyorlandi va 1 ta Forum konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Bu davrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jonli ijro san'atini yanada rivojlantirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" hamda "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunlar mutasaddi vazirlik, idora va jamoat tashkilotlari, ekspertlar guruhi vakillari hamda Yoshlar parlamenti

a'zolari ishtirokida dastlabki tarzda ko'rib chiqilib, ma'qullash to'g'risida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda qonunchilik taklifini ishlab chiqish bo'yicha ishlar olib borilmogda.

Yoshlar parlamentining yangi tarkibi shakllantirildi. "Yoshlar parlamenti faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Senat o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" hamda "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunlar mutasaddi vazirlik, idora va jamoat tashkilotlari, ekspertlar guruhi vakillari hamda Yoshlar parlamenti olib borilmogda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

IQLIM O'ZGARISHI MUAMMOLARIGA AMALIY YECHIM

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamda Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi hamkorligida "Yashil makon" umummilliy loyihasiga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki dunyodagi ko'plab mamlakatlar iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlariga duch kelmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behobish ishlash global ishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazayapti.

Bundan tashqari, Senat tomonidan qabul qilingan Harakatlar dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda qonunchilik taklifini ishlab chiqish bo'yicha ishlar olib borilmogda.

jumladan, Orolbo'yidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko'chatlarini, qalamchalarini ekish, joriy yilda mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, respublika bo'yicha 444 ta "Yashil bog" barpo etish rejalashtirilgan.



8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni

BU KUN GO'ZALLIKNING QUTLUG' AYYOMI

Ayol va istiqbol, ayol va jamiyat, Ona va millat... Bu so'zlar zamirida ko'lamli falsafa, abadiyatga daxldor hikmat mavjud. Nafis xilqat egasi bo'lgan ayol chin ma'noda sharaflashga, o'qishlashga loyiq. Chunki u dunyoga farzand armug'on etib, kelajagu millatni yaratadi, uning go'zalligidan ko'zlar yashnaydi, mehridan qalblar sururga to'ladi, muhabbatidan umrlar baxtga yo'ldosh bo'ladi. Aslida oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayz baraka kiritadigan, xonadonlarimizni nafosat, ezigulik nuri bilan munavvar qiladigan insonlar munis onalarimiz, opa-singillarimizdir.

Shu ma'noda, mamlakatimizda xotin-qizlarning hayotimizdagi mavqei yuksaltirish, ardoqlash, ularga har tomonlama ko'maklashish borasida keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, har yili 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni mamlakatimiz bo'yab ko'tarinki ruhda nishonlanadi. Bahoriy kayfiyat, shodlik va baxtga to'la ayni kunlarda ham ushbu ayyomga tayyorgarlik ko'tarinki ruhda olib borilmogda. Xalqimiz dilida sevinch, shodiyona ruhi kezib yuribdi, kishilar qo'lida gulu sovg'alar bilan uyiga shoshilmogda...

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ta'bir bilan aytganda:

Bu kun go'zallikning qutlug' ayyomi, Qizlarning ko'klamga mosligidir bu. Yuraklar limmo-lim muhabbat jomi, Bahor kelganining rostligidir bu! Maxisus sahifamizda el-yurtimiz ardorg'idagi insonlarning ayol zotiga hurmat-ehtiromi, mamlakatimizda xotin-qizlarning baxtu iqbol yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi fikr-mulohazalari havola etilmogda.

4- sahifaga qarang.

UCH OYLIK FAOLIYAT TAHLILI



Xususan, bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotlardan himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik taklifi ishlab chiqildi.

2025-yil 4-fevral kuni Oliy Majlis Senatida

Senat Raisi rahbarligida Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi va ushbu komissiyaning yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida Senat Kengashi qarori loyihasi tayyorlandi.

Shu yilning 27-28-fevral kunlari qo'mita tomonidan bolalarga nisbatan zatiyiq va zo'raonlikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini Toshkent shahriining ayrim tumanlarida o'rganish ishlari olib borildi.

O'rganishlar natijasida bolalarga nisbatan zatiyiq va zo'raonlikning oldini olish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar o'rtasida uzviy hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmagani, bu borada yuritiladigan ma'lumotlar o'zaro integratsiya qilinmagani aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, sohaga doir ma'lumotlarni yuritishda ayrim nomuvofiqliklarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, Toshkent shahar IIBB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida maktab yoshidagi bolalar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratib berilmagani ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, ishchi guruh tomonidan Toshkent shahridagi 22-Mehribonlik uyida bolalar uchun yaratilgan sharoitlar hamda bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyati ham o'rganildi. Shuning barobarida mutasaddi tashkilotlarning bolalarga nisbatan zo'raonlikning oldini olish bo'yicha amaliy chora-tadbirlari va loyihalari bilan tanishildi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddi idoralarga tegishli ko'rsatmalar berildi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar Senat tomonidan nazoratga olindi.

"Xalq so'zi".

IQLIM O'ZGARISHI MUAMMOLARIGA AMALIY YECHIM



Tadbirida mutasaddi vazirlik va idoralar mas'ul xodimlarining kun tartibidagi masalalar yuzasidan taqdimot va ma'ruzalar eshittildi.

Aytilganidek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi 2024-yilda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun 100 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Ushbu mablag'larning 52 mlrd. so'mi "Ochiq byudjet" portali orqali "Mening bog'im" loyihasini moliyalashtirishga, 48 mlrd. so'mi boshqa ko'kalamzorlashtirish

tadbirlari uchun yo'natirilgan. Ajratilgan 52 mlrd. so'm mablag' hisobidan respublikaning 208 ta tumanida "Yashil bog" va "Yashil jamoat park"lari barpo qilingan.

Munozaralarda deputatlar bugungi global iqlim o'zgarishlari sharoitida azaliy an'analarimiz va qadriyatlarimiz asosida yashillikni ko'paytirish, daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqaligina musaffo tabiatni kelajak avlodga yetkazishimiz mumkinligini ta'kidladi.

Tadbirida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joylarda targ'ibot-tashviqot ishlari yanada kuchaytirish, amalga oshirilayotgan ishlar ustidan samarali va ta'sirchan parlament hamda jamoatchilik nazoratini o'rnatish lozimligi qayd etildi. Shuningdek, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Aks sado

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANADI

Davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida bildirilgan keng ko'lamli tashabbuslar biz, parlament a'zolarini tom ma'noda sergaklikka undadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, jamiyatda eng ko'p va qizg'in muhkama qilinadigan korruptsiyaga qarshi kurashish masalasi ilk marotaba yangi formatda, davlat rahbari ishtirokida ko'rib chiqilishi kuchli siyosiy irodani namoyon etmoqda. Prezidentimiz korruptsiyaga qarshi kurashishda tashabbuskor va islohotchi, davlatchilikni mustahkamlash borasida uzoqni ko'ra biluvchi davlat arbobi ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Biz, deputatlar davlat rahbari ma'ruzasidan kelib chiqib, o'z vazifalarimizni belgilab oldik. Zotan, jamiyatda korruptsiyaga barham berishda, avvalo, biz, xalq vakillari yetakchi bo'lishimiz shart.

Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Prezidentimizning uchrashuvdagi ma'ruzasi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarga yangi "impuls" beradi va jadalashtiradi.

Bunday deiyshimizga sabab, ma'ruzada 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlar berildi. Ushbu topshiriqlar doirasida 5 ta qonun, Prezidentning 12 ta Farmon va qarori ishlab chiqilishi belgilangan ham masalalar naqadar ko'lamdor ekanidan dalolat beradi.

Avvalo, e'tirof etish kerak, davlatimiz yetakchisining oqilona rahbarligi ostida keyingi yillarda korruptsiyaga barham berish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Qariyb chorak asrda erishilmagan natijalarga so'nggi sakkiz yil davomida ortiq' bilan erisha oldik. Xususan, korruptsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar qabul qilindi, maxsus vakolatli agentlik tashkil etildi. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga keng joriy qilindi. Barcha davlat idoralari dog' ko'mplayens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlarini raqamlashtirildi. Har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksikorrupsiya forumi o'tkazib kelinmoqda. Asosiysi, jamoatchilik, jurnalistlar yaqin o'tmishdan farqli ravishda korruptsiya muammosi

haqida ochiq-oydin gapiryapti, zo'zyapti va uni bartaraf etishga ta'sir ko'rsatyapti. Yig'ilishda korruptsiyaga qarshi kurashish, davlat xizmatlarida inson omilini qisqartirish borasida erishilgan kuchli siyosiy irodani namoyon etmoqda. Prezidentimiz korruptsiyaga qarshi kurashishda tashabbuskor va islohotchi, davlatchilikni mustahkamlash borasida uzoqni ko'ra biluvchi davlat arbobi ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Biz, deputatlar davlat rahbari ma'ruzasidan kelib chiqib, o'z vazifalarimizni belgilab oldik. Zotan, jamiyatda korruptsiyaga barham berishda, avvalo, biz, xalq vakillari yetakchi bo'lishimiz shart.

Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Prezidentimizning uchrashuvdagi ma'ruzasi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarga yangi "impuls" beradi va jadalashtiradi.

Bunday deiyshimizga sabab, ma'ruzada 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlar berildi. Ushbu topshiriqlar doirasida 5 ta qonun, Prezidentning 12 ta Farmon va qarori ishlab chiqilishi belgilangan ham masalalar naqadar ko'lamdor ekanidan dalolat beradi.

Avvalo, e'tirof etish kerak, davlatimiz yetakchisining oqilona rahbarligi ostida keyingi yillarda korruptsiyaga barham berish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Qariyb chorak asrda erishilmagan natijalarga so'nggi sakkiz yil davomida ortiq' bilan erisha oldik. Xususan, korruptsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar qabul qilindi, maxsus vakolatli agentlik tashkil etildi. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga keng joriy qilindi. Barcha davlat idoralari dog' ko'mplayens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlarini raqamlashtirildi. Har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksikorrupsiya forumi o'tkazib kelinmoqda. Asosiysi, jamoatchilik, jurnalistlar yaqin o'tmishdan farqli ravishda korruptsiya muammosi

e'tibor qaratildi. Amaldagi qonunlarimiz jazoni kuchaytirishning o'zi bilan cheklanib qolgan, korruptsiyaning oldini olish, odamlarimizni unga toqatsizlik ruhida tarbiyalash, profilaktika mexanizmlarini yaratish, jinoyatni fosh qilishga yordam berganlarni rag'batlantirish kabi masalalar aks etmagani asosli ravishda tanqid qilindi.

Darhaqiqat, bugungi kunda korruptsiyaga qarshi kurashishda jazo belgilashning o'zi bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Kundan-kunga turi va shakli o'zgarib, ko'payib borayotgan korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlarining profilaktikasini kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlarni ishga tushirish, bu borada mavjud huquqiy asosni takomillashtirishimiz zarur.

Kezi kelganda ta'kidlash joziki, milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz tomonidan bildirilgan tashabbuslar va takliflar partiyamiz dasturiy maqsadlariga hamohangdir. Zero, "Adolat" SDPning Saylovoldi dasturida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida qator muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Korruptsiyaga qarshi kurashish madaniyatini innovatsion yondashuvlar asosida yoshlarning ongiga singdirish partiyamizning qat'iy pozitsiyasidir.

"Biz davlat xizmatida tanish-bilishchilik, manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishda davlat xizmatchilarini rotatsiya qilish tizimini rivojlantirish tarafdorimiz" kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Shuningdek, yuridik yordam ko'rsatilishda advokatlar faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish, davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlashning zamonaviy tizimini ishga tushirish, to'g'ridan-to'g'ri xaridlarni qisqartirish va boshqa ko'plab tashabbuslar partiya dasturiy g'oyalariga mos ekani bilan ahmiyatlidir.

Shubhasiz, yuqoridagi tashabbuslarning amaldagi in'ikosi qonun ijodkorligi borasidagi faoliyatimizni qayta ko'rib chiqishimiz zarurligini anglatadi. Zotan, partiyamiz va uning fraksiyasi a'zolari yurtimizda korruptsiyani bartaraf etishga qaratilgan milliy me'yoriy-huquqiy asoslarning ijrosini amalga oshirish, joylarda targ'ib qilish va ularni takomillashtirishga hamisha tayyor.

Robaxon MAHMUDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Adolat" SDP fraksiyasi rahbari.

NAZORAT MEKANIZMLARINI KUCHAYTIRISHDA PARLAMENT ISHTIROKI MUHIM

Kuni kecha davlatimiz rahbari Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida muammolar ko'tarilib, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat organlari faoliyatini yanada shaffoflashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish masalalariga alohida urg'u berildi.

Majlisda korruptsiyaning asosiy o'choqlari, ayniqsa, mahalliy darajadagi muammolar ko'tarilib, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat organlari faoliyatini yanada shaffoflashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish masalalariga alohida urg'u berildi.

Jinoyatchilik va korruptsiyaga qarshi samarali kurash olib borish uchun muammo ilidini aniqlash hamda unga huquqiy hamda institutsional javob berish zarur. Shu nuqtayi nazaridan, parlament qo'mitalari jinoatchilikning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilishi, har bir holat bo'yicha aniq choralar belgilashi lozim. Bu nafaqat jinoyatlarining oldini olish, balki huquqiy va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali tizimli muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Bu borada parlamentning ham keng ko'lamli ishtiroki bo'lishi zarur. Parlamentning korruptsiyaga qarshi kurashdagi o'rni, ayniqsa, qonunchilik

tashabbuslarini ilgari surish, joylardagi real vaziyatni tahlil etish va mas'ul organlardan natija talab qilish orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Senatning bu jarayondagi roli esa yanada muhim. Chunki Senat nafaqat qonunlarni muhkama va tasdiqlash vakolatiga ega, balki hududiy muammolarni bevosita o'rganib, ijro hokimiyati faoliyatini nazorat qilishda ham muhim mas'uliyatni zimmasiga olishi lozim.

Demak, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan mazkur takliflar jinoatchilikka qarshi kurashda yangi bosqichni boshlab beradi. Endilikda bu jarayon nafaqat huquq-tartibot organlarining vazifasi, balki parlament qo'mitalari va mahalliy Kengashlarning ham faol ishtirokini talab etadi. Maqsad esa bitta – jinoatchilik va korruptsiyadan xoli, xavfsiz jamiyatni barpo qilish.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari.

"JAMIYAT TANASIDAGI SARATON"

Kuni kecha o'tgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan korruptsiyani tag'tomiri bilan quritish uchun, avvalo, inson omili va qog'ozbozlikni kamaytirishga alohida e'tibor qaratilayotgani aytib o'tildi.

Bu borada eng dolzarb yo'nalishlardan biri – davlat xaridlari tizimini isloh etish va undagi korruptsiya omillarini yo'q qilishdir. Chunki manfaatlar to'qnashuvi, tovar va xizmatlar qiymat narxlarida sotib olinishi kabi salbiy holatlar aynan ushbu tizimda ko'proq kuzatilmoqda.

Yig'ilishda to'g'ridan-to'g'ri davlat xaridlarini sonini kamaytirish bo'yicha jiddiy choralar ko'rish lozimligi ta'kidlandi. Bugungi kunda 50 dan ortiq turdagi tovar va xizmatlarni bevosita xarid etish mumkin bo'lsa-da, hech bir rahbar ushbu ro'yxatni bekor qilish va jarayonni ochiq tanlov asosida o'tkazish bo'yicha tashabbus bildirmagan.

Mavjud muammolarni tizimli hal etish uchun maxsus Ekspert komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya ilg'or xalqaro tajribani o'rganib, davlat xaridlarini jarayonini nazorat qilish bo'yicha yangi tizim yaratadi. Xususan, tovar va xizmatlarning bozor narxi aks etadigan elektron platforma shakllantiriladi va undagi ma'lumotlar doimiy yangilab boriladi.

Yangi tartibga ko'ra, davlat xaridlarida tovar yoki xizmat narxi bozor narxidan 20 foizdan ortiq oshmasligi shart qilib belgilandi. Ushbu talabni buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonuniy javobgarlik va jarima sanksiyalari qo'llaniladi. Bu chora korruptsiya keishuvlarining oldini olish va davlat mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'tgan yillar davomida ushbu illatga qarshi tinimsiz kurash olib borilishi natijasida

ko'p yillik muammoga aylangan maktabgacha ta'lim tizimidagi korruptsiyaviy holatlar, ota-onalarning ortiqcha sarsongarchiligiga barham berildi. Korruptsiyaga yo'l ochishi mumkin bo'lgan sohada ko'plab xizmat turlari raqamlashtirildi. Jumladan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, o'tgan davrda maktabgacha va maktab ta'limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to'liq elektron shakliga o'tkazildi. Bu esa ushbu sohada murojaatlar sonining 2,5 karraga kamayishiga olib keldi.

Albatta, bularning barchasi davlat rahbarining kuchli siyosiy irodasi va korruptsiyaga qarshi shafqsiz kurash olib borishda qo'ngan talab va tashabbuslari asosida amalga oshmoqda, desak, ayni haqiqat.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda ham korruptsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarab, mahalla faollari, nuroniyalar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – butun jamoatchilik birlashib kurashishi zarurligini uqtirib o'tdi.

Albatta, bu yo'lda biz, senatorlar zimmasiga ham zalvarli mas'uliyat yuklanadi. Shunday muhim vazifalar ijrosiga mahalliy Kengashlar deputatlari, mazkur soha bo'yicha ish olib borayotgan doimiy komissiyalar, keng jamoatchilikni jalb etib, hamkorlikda ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqamiz.

Kobuljon TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Raqamlashtirish – zamon talabi

Energetika sohasini raqamlashtirish – bu shunchaki texnologik yangilanish emas, balki milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish va aholining turmush sifatini oshirishga qaratilgan strategik qadamdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlari sohasidagi milliy maqsad va vazifalarining jiro etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. BRMning "Arzon va toza energiya" maqsadi bo'yicha aholini barqaror energiya resurslari bilan ta'minlash, shuningdek, yoqilg'i-energetika sohasini raqamlashtirish bo'yicha muayyan ishlar qilinmoqda.

Mushohada

Tizimni raqamlashtirish borasidagi islohotlar Prezidentimizning qaror va farmonlari asosida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari, xususan, Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi mazkur jarayonlarni qonunchilik orqali qo'llab-quvvatlab, energetika sohasini raqamlashtirish bo'yicha qabul qilinayotgan qonunlar, parlament eshituvlari va nazorat mexanizmini kuchaytirish orqali tizim taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda.

Xususan, energiya iste'moli samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli hisobot va monitoring tizimlarini kengaytirish yuzasidan parlament eshituvlari tashkil etilmoqda, energetika sohasiga ajratilgan byudjet mablag'lari ijrosi ko'rib chiqilmoqda. Energetika vazirining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshittish, unga deputat so'rovlari yuborish kabi shakllardan samarali foydalanilyapti.

Joriy yilda Energetika vazirining sohaga oid islohotlar samaradorligi yuzasidan uch marotaba axborotini eshittish, parlament va deputat so'rovlari yuborish rejalaridagi bo'lib, hozirda hududlarga chiqib, o'rganishlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda buning natijasida energetika infratuzilmasini transformatsiya qilish, "aqli" tarmoqlar va sun'iy intellekti joriy etish orqali soha samaradorligini oshirishda erishilayotgan ayrim islohotlar to'g'risida to'xtalib o'tish joiz.

Shulardan biri – "HET-Billing" – elektr energiyasi uchun raqamli hisob-kitob tizimi bo'lib, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 8,5 million abonentni qamrab oluvchi mazkur dasturiy kompleks joriy etildi. Bu innovatsion tizim orqali elektr energiyasini hisobga olish, monitoring qilish va to'lovlarni amalga oshirish jarayonlari to'liq avtomatlashtirildi.

Endilikda iste'molchilar "cabinet.net.uz" veb-portali va "HET-Billing" mobil ilovasi orqali o'z iste'mollarini real vaqt rejimida kuzatib borishlari, shuningdek, onlayn to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

Tabiiy gaz ta'minoti sohasida ham raqamli yechimlar jadal tarzda joriy etilmoqda. "Hududgazta'minof" AJ tomonidan amalga oshirilgan Avtomatlashtirilgan hisobga olish va nazorat qilish (ASKUG) tizimi mamlakat bo'ylab 3,8 million xonadonni zamonaviy hisoblagichlar bilan ta'minladi. Bu innovatsion yangilik aholi uchun nafaqat qulaylik, balki aniq hisob-kitob va shaffoflikni ta'minlash imkoniyatini yaratdi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali suyuqlirilgan gaz taqsimoti ham yangi bosqichga ko'tarildi. "E-Gaz" tizimi orqali bu jarayon to'liq avtomatlashtirildi. Endi gaz ta'minoti va hisob-kitob ishlari elektron tarzda yuritilib, inson omili minimallashtirildi.

Shuningdek, iste'molchilar uchun maxsus ID-kartalar joriy etildi. Bunda respublikadagi 3,8 million iste'molchi maxsus ID-kartalar bilan ta'minlandi va 4,8 milliondan ortiq maishiy gaz ballonlarga elektron

chiplarni birkiritildi. Ushbu mexanizm orqali gaz to'lovlari yanada shaffof va qulay bo'lib, fuqarolar o'z iste'mollarini osonlikcha nazorat qila oladi.

Fuqarolarning murojaatlari va savollarga tezkor javob berish maqsadida 24/7 rejimda ishlaydigan "Call-markaz" faoliyati yo'lga qo'yilib, bu xizmat orqali iste'molchilar har qanday muammolar yoki savollar bo'yicha tez va samarali yordam olish imkoniyatiga ega.

Tabiiy gaz ta'minotidagi ushbu raqamli yechimlar nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshirdi, balki sohaga zamonaviy yondashuvni kiritib, aholi va tadbirkorlar uchun yanada ishonchli va shaffof muhit yaratdi.

Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq "E-KON" loyihasi doirasida bugungi kunga kelib Sho'rtan NGQCHB, Gazli NGQCHB, Ustyurt GQCHB va Muborak NGQCHB konlariga qarashli quduqlarda ma'lumotlarni onlayn tarzda uzatish uchun 26 dona baze stansiyasi, 112 dona radiokop'rik va 200 dona videokuzatuv kameralari o'rnatildi.

Natijada 1406 ta gaz qudug'i va 96 ta gaz yig'uv juyi bosim hamda haroratni onlayn monitoring qilish tizimiga ulandi. "Schlumberger" kompaniyasi bilan hamkorlikda konlarni raqamli modellashtirish ishlari amalga oshirildi. Bu sanoatchilarga geologik qaltilsliklarni 40 – 45 foizdan 5 – 10 foizgacha kamaytirishga imkon berdi.

Mazkur tizimning joriy etilishi yonilg'i quyish shoxobchalarini boshqarishni avtomatlashtirish, markazlashtirilgan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, faoliyatini monitoring va nazorat qilish hamda hisobot ma'lumotlarini yaratish va saqlash imkonini beradi.

Bu o'zgarishlar nafaqat soha samaradorligini oshirishga, balki aholi uchun yanada ishonchli, xavfsiz va shaffof energetika tizimini yaratishga xizmat qilmoqda. Har bir fuqaro va tadbirkor real vaqt rejimida o'z energiya sarfini kuzatib borishi, onlayn to'lovlarni amalga oshirishi va tezkor xizmatlardan foydalanishi mumkin bo'lmoqda.

Raqamli texnologiyalar orqali elektr va gaz ta'minotida yo'qotishlar kamayib, resurslardan tejamarlik bilan foydalanish yo'lga qo'yilyapti. Bu esa uzluksiz va barqaror ta'minotni yuzaga keltirmoqda.

Sohani raqamlashtirishning keyingi bosqichida xizmatlar uchun undiruvni onlayn va elektron amalga oshirish, xodimlar ish samaradorligini onlayn nazorat qilish, qurilish, rekonstruksiya jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishi, jarayonga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish (inson omili aralashuvsiz murojaatlarga avtomatik javob berish, texnik shart olish) va shuningdek, korruptsiyaviy holatlarni kamaytirish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarni oshirish maqsad qilingan.

Albatta, bularning barchasi korruptsiya va noqonuniy ulanishlarga qarshi kurash samaradorligini sezilarli oshiradi. Hisobga olish va nazorat qilish jarayonlarining to'liq avtomatlashtirishi esa inson omilini kamaytirib, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlaydi.

Javlon ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

BU KUN GO'ZALLIKNING QUTLUG' AYYOMI

Buyuk xilqat

Oqil SALIMOV,
akademik:

– Dunyoda millati, tili, e'tiqodi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha ona bir-biriga o'xshaydi. Onaning tilini tushunmasligingiz mumkin, lekin ko'zlaridan nima deyayotganini, farzandiga mehrini, ezgulikka borini baxshida etishga tayyorligini uqib olasiz.

Men har bir munis va mehribon o'zbek ayoliga boqqanimda, uning timsolida o'z onamni ko'rgandek bo'laman. Xatti-harakatlari, gap-so'zlari, nigohlari volidamni eslatadi. Darhaqiqat, Yer yuzidagi jamiki onalarning jig'arbandiga bo'lgan mehri egizdir. Bu shunday bebaho tuyg'uki, qashshoqlik yoki boylikda, sog'lomlik yoki bemorlikda, qish qahratonida, jazirama saratonida ham polatdek o'zgarmasdir. Faqat onalargina farzandining birgina kulgisi, halovati, qo'yingki, baxtu kamoli, iqboliga umrini tikadi. Zotan, sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Dunyoda eng bebaho, ammo hamisha benazir tarqatiladigan xazina bor. Bu – Ona mehri!" degan so'zida ana shunday chin haqiqat yotadi.

Bugun jonajon O'zbekistonimizda mo'tabar ayol zotining qadr-qimmatini oshirish, ularni e'zozlashga katta e'tibor qaratilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat, xotin-qizlarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar ayolning oilada, jamiyatda chinam baxtli yashashi uchundir. Parlamentimizda ham xotin-qizlar soni yil sayin ortib bormoqda. Buni o'tgan yilgi saylov natijalari



ham tasdiqlaydi. Milliy parlamentlar bo'yicha xalqaro reytingda O'zbekiston parlamenti xotin-qizlar salmog'iga ko'ra jahondagi 193 ta davlat orasida 49-o'ringandan 34-o'ringa ko'tarilishi davlatimizning demokratiya va gender tenglik sohasidagi katta yutuqlaridan dalolat beradi.

Har bir qiz bo'lg'usi ona, ona so'zi esa "ona Vatan" tushunchalari bilan hamisha yonma-yon tamsil etiladi. Demak, yurtimizda unib-o'sayotgan har qaysi qizning ilm olishi, sog'lom voyaga yetib, o'zining iqtidorini namoyon qilishi, o'z o'rnini topishdek mas'uliyat, avvalo, ota-onaga, mahalla, maktab, qolaversa, butun jamiyatga daxldor. Binobarin, uchinchi Renessans quydevorini ilmi, oqila va ma'rifati onalarsiz qo'ymo'lmaydi. Har bir ona esa farzandi uchun birinchi muallimdir.

Nigohi qalbg'a ilhom soladi

Akmal NUR,
O'zbekiston Badiiy
akademiyasi raisi,
O'zbekiston xalq rassomi:

– Ayol – mehr-muhabbat, go'zallik, nafasot, noziklik, ibo-hayo, poklik, sadoqat timsoli. Shuningdek, u oilaning gultoji, kelajak avlod tarbiyalovchisi, inson qalbida muqim topadigan barcha ezgulik va ziyoning ham asrovchisidir. Ehtimol, shu boisdan ham odam uchun hamisha qadrlil bo'lgan Vatan, quyosh, zamin, tabiat kabi kalomlar ona so'zi bilan payvast aytiladi, shu tariqa ulug'lanadi.

Ayniqsa, ijodkor uchun ayol, uning sevgisiyu mehru-muhabbati ulkan ilhom manbaidir. Masalan, bundan necha asrlar avval yaratilgan asarlarni bir eslaylik... Ayolning hatto ko'z ostidan muloyim bir qiyo boqishi, qoshini bilinar-bilinmas titratishi ham bir-biridan go'zal g'azallar yaratilishiga turki bergan. Xumor va ishq to'la ko'zlari, shaftoli



g'unchasini eslatuvchi lablari qanchadan-qancha suratlar chizishga ilhomlantirgan.

Bilamizki, moziyda Sharq ayollari nafaqat go'zallik ramzi, balki hayot yaratuvchisi, mehr-muhabbat, ibo va hayo egasi sifatida ulug'langan. O'zbek ayoli Sharq ayollari orasida o'ziga xos o'ringa ega, uning ijobiy sifatlarini sanaymiz, desak, adashib ketish hech gap emas.

Asarlarimda ayolning go'zalligini, nozik qalbini, haroratli his-tuyg'ularini, orzu va umidlari naqadar musaffoligini, armonlari naqadar ko'nglining to'rida berkinib yotganini ifodalashga harakat qilaman.

Bu asarlar uchun ilhomni, albatta, uzoqdan emas, o'z yaqinlarim – onam, ayolim, singillarim, qizlarim nevaralarimdan olaman. Har safar ularning mehribon va munis chehrasiga qaraganimda, iliq so'zlarini eshitganimda qalbiga yorug'lik inadi, ko'zlarim yashnab, to'liqinlanib ketaman. Ha, ularning bir nigohi ham qalbg'a ilhom solishga qodir...

Mamlakatimizda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikni ko'rib behad quvonasan kishi. Qay sohaga qaramaylik, ularning o'z o'rnini topib borayotgani, oilada ham, jamiyatda ham qanchalik e'zozlanayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

Ayollar e'zozlangan yurtda go'zal kelajak yaratadi, baxtli hayot hukm suradi, bolalarning shodon kulgisi yangraydi, ko'ngillar zavqu shavq tuyadi. Ilohim, O'zbekistonimizdagi mana shu shukuh bardavom bo'lsin!

Ona siymosini gavdalandirish – ham mas'uliyat, ham sharaf

Rixsi IBROHIMOVA,
O'zbekiston xalq artisti:

– Shu bahor 88 yoshga kirdim. Hayotim davomida teatr, kino, televideniye, radioda yetmishdan ortiq rollar o'ynadim. Yoshligimda onalar obrazini yaratgan bo'lsam, o'ttiz yildan buyon o'ynagan rollarimni onalar galereyasi deyish mumkin. Bular orasida yapon, qozoq, qirg'iz, turkman, rus onalarining ham betakror siymosi bor.

Kinoda, teatrdan, hayotda bo'ladimi, ona degan timsolga juda katta mas'uliyat yuklangan. Men o'ynagan rollar Nodirabegimning onalik davrimni, To'marisning "Bolam, boshingni baland tut, dushmanga bo'yin egma", degan da'vatini, hatto taxt talashgan onalar, o'zaro dushman akualarning onasi, urush qurbonlarining onasi bo'ladimi, qaysi obrazda ko'lishidan qat'i nazar, bu onalar qismatida hayot haqiqati mujassam. Onalar yaratuvchi zotdir. Bolalariga alla aytganda, buyuk insonlar bo'lib yetishini orzu qiladi. Lekin ular katta bo'lganida qanday inson bo'lishi atrof-muhitga bog'liq.

"Shum bola" filmidagi ona yetim bolalarni qanchalik qiyinchilik, halol mehnat bilan boqqani bilan ichidan bittasi noqobil chiqadi. Yoki "Mening o'g'rigina bolam" filmidagi ona o'z mehri bilan nomingga isnod tushmasin, deb bir o'g'rigina bolani to'g'ri yo'lga solib yuboradi. "Dunyoning ishlari" filmidagi ona ham talqon bilan bolasini boqadi, bittagina echki bilan kun kechiradi. Onalarimiz shunday sabrii, toqatli, oqila va mehribon bo'lgani uchun ham "Jannat – onalar oyog'i ostida", deyishadi.

"O'talar so'zi" ko'rsatuvida ko'p rollar o'ynaganman. Yetimxonalar, g'aribxonalar, qishloqlardan qoplab maktablar kelgan. Moziydagi onalar roli xalqimiz e'tirofiga, hurmatiga sazovor edi. Lekin bugun kino va teatr sahnalarida onalar obrazi qanday namoyon bo'lmoqda? Bu yuksak siymoni quruq planshetdan o'qib beriladigan balandparvoz so'zlar yoki qimmatbaho taqinchoqlar, liboslar bilan gavdalandirib bo'lmaydi. Serriallarimizdagi andishasiz xotinlar o'zbek onasining asl qiyofasi emas. Onalarimizning siyratini ko'rsatish, dardu tashvishlari, orzu-armonlarini ochib berish hozirgi san'atimiz oldidagi dolzarb vazifadir.

Yurtboshimiz oilani ham, davlat ishlarini ham eplab, iqtidorini namoyon etayotgan ma'rifatlil onalar ko'ksiga orden, medallar taqyapti. San'atkorlarimiz ana shunday haqiqiy onalar obrazini yaratishini xohlayman. Ular ijro qilgan rollari xalqimiz esida qolsin.



Har qirrasini sirli, mo'jiza

Isajon SULTON,
O'zbekiston xalq yozuvchisi:



– Ona siymosini tasvirlamagan, u haqida jilla kursa to'rt jumla bitmagan ijodkor bo'lmasa kerak. Ona haqida qancha ta'rif tashbehlar bitsak, shuncha oz. Bu ham xalqimizning o'ziga xosligi, onaga mehr-muhabbati dalolati.

Xalqimizda qoniga ijod ruhi singgan har qanday shoir yoki yozuvchi ona timsoliga yuksak hurmat bilan yondashadi. Lekin hamma ham o'z onasini yozavermaydi. Tog'ning tagida tursangiz, uning butun mahobati, salobati, ko'rku jamolini yaqqol ko'rib turasiz. O'z onasining ichki dunyosini yaxshi bilgan adibga ham bu buyuk qalbn tasvirlash oson emas. Shu bilan birga, yana bir andisha borki, ijodkor onasini xalqqa maqtab, ko'z-ko'z qilmaydi. Bundan imyanadi.

Mening ham bosh qahramoni aynan onam prototip qilib olingan asarim yo'q. Biroq bu ulug' siymo har bir asarimga – kichik hikoyamdan tortib katta romanlarimgacha o'z ta'sirini o'tkazgan, desam, ayni haqiqat. Axir o'zim shu onaning "ijodi" mahsuli bo'lganimdan keyin mening ijodim ana shu nuqtadan boshlanishi tabii. Onajonimning hikoyayu etaklari, iboralariyu qochirilmali, askiyayu kinoyalari bilan ilhomlanib, asarlarimda uning ayrgan jumlaridan foydalanman. Volidam bilan bog'liq ayrim xotiralar hikoyayu qissalar tug'ilishiga turki bergan.

Masalan, bir safar onamni O'rta Yer dengizi bo'yiga dam olishga olib bordim. Mehmonxonaga joylashdik. Saharlab onam meni uyg'otdi: "Hoy bola, tur! Musicha kukulayapti, kun yoyilib ketdi". Xuddi bolaligimda, o'ls qishloqda quloqlarim ostida jaranglagan va sasdan yana o'sha betakror begubor damlarga qaytgandek bo'ldim. Safar davomida onamning o'zini tutishi, quvnashi, o'nga cho'mishi, atrofga hayrat ko'zi bilan boqishi... Qalbiga muhrlanib qolgan bu xotiralar keyinchalik "Men, onam va O'rta Yer dengizi" degan hikoyamga xamirturush bo'lgan.

Millatimiz qadim urf-odat va qadriyatlariga ega. Masalan, yosh kelinning bolalarga ro'molcha, pichoq hadya etishi, sochni qirg' o'rim qilib o'rishi ham go'zal odatlarimizdan. Ularning zamirida teran ma'no-mazmun yotadi. Shularning hammasini "Onazor" degan qissa yozganimda mehribonimdan so'rab olganman.

Ayol zoti butun umr uy-joyim, bola-chaqam deb yashab o'tadi. Ular faqat ota uyidagina o'z hayotida yashaydi, o'zga uyda esa qaynona-qaynota xizmati, jufti haloli baxti, farzandlarining kelajakdagi taxti uchun umrini davom ettiradi. Onamning turmush tarzi, o'tin terib, turdida non yopishi, o't o'rib, jonivorlarga xashak berishi, odamlarga, tabiatga, borliqqa munosabati doim xayolimda turadi. Bu tasvirlar asarlarimga ko'chadi, qahramonimning hayotida jonlanadi. Ular ijodim mahsulining o'qishiligin, hayotiyiligin ta'minlaydi. O'quvchilar mutolaa paytida bu obrazlar timsolida o'z onasini ko'rishiga zamin yaratadi.

Nazokat, sadoqat va shukronalik timsoli

Yurtimizda xotin-qizlar uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish yo'lida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan yillar davomida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida:

- bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi **35**, tadbirkorlik sohasida **45**, siyosiy partiyalar tarkibida esa **49** foizga yetdi;
- 2020 – 2024-yillarda ehtiyojmand **8653** nafar xotin-qiz oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi;
- magistratura bosqichida tahsil olayotgan **24 ming** talabaning **60** foizi yoki **17 mingdan** ziyodi xotin-qizlardir. Bu ko'rsatkich 2018-yildagiga nisbatan **3,8** barobar ortgan;
- 2021 – 2024-yillarda **6 mingga** yaqin talaba xotin-qizlarning shartnoma to'lovlari mahalliy byudjet mablatli hisobidan qo'plandi;
- o'tgan yilda qariyb **890 ming** nafar xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashildi;
- "ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarning qariyb **995,5 ming** nafariga yordam berildi.

Hukm o'qish menga oson bo'lmagan

Ismatulla MAMANOV,
sud faxriysi:



– O'n besh yillik sudyalik faoliyatim davomida ayollar tomonidan sodir etilgan ko'plab jinoyatlarni ko'rib, hukm chiqarganman. Aytish joizki, ayol ustidan hukm o'qish sudy uchun nihoyatda og'ir. Chunki qanchalar mudhish qilinish sodir etgan bo'lmasin, u birinchi navbatda ayol. U ham kimningdir qizi, singlisi, opasi, kimningdir turmush o'rtog'i yoxud onasi. Xullas, siziz biz yashayotgan shu davlatning fuqarosi, shu yurtning to'laqonli a'zosi. Qolaversa, jannat poyiga nisori etilgan ayol. U jinoyat qilaman deb dunyoga kelmagan, qaysidir bir nosog'lom muhit uni shu ko'nga solgandir, balki.

Uni jinoyatga nima undagan, kim majbur qilgan? Uning atrofidagilar nega bunga quvondim.

loqayd bo'lishgan? Har safar bu toifadagi jinoyat ishini o'rganib, uni sud majlisida ko'rib chiqib, hukm e'lon qilguninga qadar sudlanuvchi ayol bilan xayolan birga yashadim, u bilan birga azob chekdim. Ertayu kech uni jinoyatga boshlagan yo'llardan yurdim. Ichimda tuzalmas og'riq, pushaymonlik va aybdorlik tuyg'usini his qildim. Ba'zan uni bu jarlikdan olib chiqib ketish yo'lini topganday bo'lganimda (albatta, qonun doirasida), ich-ichimdan quvondim.

Aytish kerakki, jinoyat sodir etgan ayollar bilan bog'liq hukmlarni ich-ichimdan yig'lamasdan o'qiyolmadim.

Jinoyat sodir etgan shaxs kim bo'lishidan qat'i nazar (ayol bo'lsa ham), qonun oldida javob berishi va qilmishiga mutanosib tarzda jazoga tortilishi lozim. Bu – qonun talabi. Ammo jinoyatchi sifatida ayolga, onaga hukm chiqarish har bir sudy uchun azob. Chunki birgina ayolning orqasida butun boshli oila, qolaversa, butun millat turadi. Shu bois har bir ayol o'z muqaddas nomiga, or-nomusiga dog' tushirmasligini xohlayman. Zero, ayol xalqimizda azaldan muhtaram va munis xilqat, mehr va sadoqat timsoli bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Gul va ayol mushtarak

Sharofat NORIYEVA,
Sharof Rashidov tumanidagi "Gulchi opa tomorqa xizmati" klasteri rahbari, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor" faxriy unvoni sohibasi:

– Ayol – mo'jizaviy xilqat. Gul esa tabiatning go'zal in'omi. Bu ikki yaratq aro mushtaraklik bor. Ayol barcha zamonda hayot bardavomligi ifodachisi, ko'ngillar malikasi, oilalar fayzu farishtasi bo'lib kelgan. Gul ham doim eng yaxshi tuhfa, tuyg'ular izhori vositasi, xonadonlar ko'ri, yaxshi kayfiyat manbai hisoblangan. Shoirlar ayollar go'zalligini gullarga qiyoslashadi. Haqiqatan ham, dil nozikligi, doim nafasatga intilishi, hayotdan faqat yaxshilik kutib yashashi, ezgulikka xizmat qilishi bilan aziz onajonlarimiz, mehribon opa-singillarimiz gulga o'xshab ketadi.

Bahor kelishi va kunlar isishi bilan go'chalarda olcha daraxti gullay boshlaganiga ko'zimiz tushadi. Uning chiroyidan mast bo'lamiz.

Bolaligimdan gullarni

yaxshi ko'rarim. Maktabdan qaytayotganimda olchanning gullaganini yoki uylar tomida alvon rangdagi qizg'aldoqlarni ko'rib qolsam, soatlab ularning go'zalligiga, bo'yiga maftun bo'lib tikilib turardim.

Gulchilikka qiziqishim ortib, turli adabiyotlar, jurnallardan o'qib, dunyoda insoniyatni o'z go'zalligini bilan hayratga solgan gullar juda ko'p ekanini bildim. Masalan, sakura – yapon xalqining eng sevimli guili. U milliy ramz darajasiga ko'tarilgan. Yaponiyada har yili sakura gullay boshlagan kun – 27-mart bayram sifatida nishonlanadi. Odamlar bu kunda hatto ishga ham bormaydi. Ular bu go'zallikni sokin va xotirjam holatda kuzatishni istaydi.

Har bir gulga nisbatan qalbimni ana shunday his-tuyg'ular egallagan. Shu bois



gulchilik kasbi etagidan tutdim va shukrki, kam bo'lganim yo'q.

Men baxtli ayolman. Chunki o'zim sevgan gullar va gulchilik kasbi orqasidan elu yurtga tanidim, davlatimiz rahbari nazariya tushdim. Prezidentimiz Farmoniga ko'ra 2024-yilda menga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tadbirkor" degan unvon berildi. Bu nafaqat tadbirkorlik orqali mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shayotganimga, mehnatlarimga berilgan yuqori baho, balki ayol zotiga, uning orzulari ro'yobi, baxtu saodatiga yuksak ehtirom va e'tibor ifodasidir.

"Xalq so'zi".

Poytaxtimizda Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "Ayollarga ehtirom" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terilishi hamda operator A. Ismatov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonadan manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.20 Topshirildi – 23.40 1 2 3 4 5 6